

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ISHTIXON TUMANI O‘ZBEKLAHGAN ETNIK ARABLAR SHEVASIDA UCHROVCHI “ŽOTALLI” SO‘ZINING IZOHI

Sadoqat Rajabova Rasul qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida tayanch doktoranti

sadoqatrajabova@mail.ru

Annotatsiya: Maqola Samarqand viloyat Ishtixon tumanida yashovchi o‘zbeklashgan etnik arablar tilining leksik xususiyatlarini yoritib beradi. Ushbu shevada mavjud bo‘lgan “žotalli” so‘zi qo‘llanilishi, izohi va sinonimlari keltirilgan holda tahlil qilinib ilmiy xulosa berilgan. Ushbu so‘z shevada asosan epchil, chaqqon, serharakat, abjir ma’nolarida qo‘llaniladi.

Kalit so‘zi: žotalli”, chaqqon, uddaburon, epchil, abjir, serharakat.

O‘zbek shevalarini tadqiq etar ekanmiz har bir hududning o‘ziga xosliklarini uchratamiz. Bu haqda E.D.Polivanov dialektal izlanishlari natijasida “Turkiy tillarning biron-tasi ham o‘zbek tilidagi kabi turli tuman dialektik farqqa ega emas” degan ilmiy xulosaga kelgan. Har bir shevaning til sathlarida o‘ziga xos alohida jihatlari mavjud. Fonetik sathda tovushlar va ularning talaffuzi, morfologiyada so‘z turkumlari, qo‘shimchlarning o‘ziga xosliklari, leksik sathda esa, albatta, so‘zlarning o‘ziga xos sifatlarini shevalraro farqlashini uchratishimiz mumkin. Jumladan, Ishtixon tumanida yashovchi bugungi kunda o‘zbeklashib ketgan etnik jihatdan arab bo‘lgan so‘zlashuv tili o‘zbek tili bo‘lgan arablar shevasidagi adabiy tildan leksik jihatdan farq qiluvchi so‘zlar soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Ushbu shevada mavjud bo‘lgan “žotalli” so‘zini maqolamizda tahlil qilib o‘tamiz.

“Žotalli” so‘zi shevada “uddaburon, abjir, chaqqon” shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu so‘zning izohli va sheva lug‘atlarida izohi mavjud emas, shuning uchun biz ushbu shevadagi mazmuniga qarab uning sinonimlarini keltirib, qiyoslab olamiz va oxirida umumlashtirib bu so‘zga izoh keltiramiz. “Žotalli” so‘zi **uddaburon, ustomon, gapga chechan, chaqqon, abjir** so‘zlari bilan ma‘nodoshlik hosil qiladi. Har bir ma‘nodosh so‘zlarimizni birma bir izohlab aynan mana shu so‘zga sinonim bo‘la oladimi yoki qaysidir ma‘no nozikligi bilangina sinonim bo‘ladimi yoki sinonim bo‘la olmaydimi mana shularni tahlil qilamiz.

UDDABURO(N) — har ishni udda qila oladigan, eplay oladigan; epchil, abjir, tadbirkor. *Homidxo‘ja Mirvalining uddaburo bola ekanini yaxshi bilardi (S. Ahmad, Saylanma [5.554]. Uddaburon so‘zi ishni uddasidan chiqadigan, epchil shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu xususiyatga ega shaxslar biron faoliyatni qiyinchiliklarsiz tezda amalga oshirishga harakat qiladi. Bu so‘z “žotalli” so‘zining*

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

aynan ma’nosini beradi va o’g’zaki nutqda bemalol biri o’rnida boshqasini qo’llashimiz mumkin.

USTOMON — juda ustalik, mug’ambirlik, hiylakorlik bilan muomala qiladigan; ayyor, hiylagar, makkor . *To’raxonov ustomon, obro’si ham baland, yolg’onni ham qoyil qiladi (SH. Rashidov) [5.603]. Bu so’z “žotalli” so’ziga faqat “juda ustalik” ma’nosini ifodalagandagina sinonim sifatida qo’llashimiz mumkin. Ustomon so’zining mug’ambirlik, hiylakorlik bilan muomala qiladigan; ayyor, hiylagar, makkor ma’no atinkasi “žotalli” so’ziga sinonim bo’la olmaydi. Chunki “žotalli” so’zida faqatgina epchilik, chaqqonlik, abjirlik ma’nolari mavjud bo’lganligi uchun bu so’zning “juda ustalik” ma’nosinigina berganda faqatgina kam o’rinlarda qo’llashimiz mumkin.*

EPCHIL — ishni ustalik bilan chaqqon bajaradigan. Ukangiz **epchil** yigit ekan. Bu sifat **“udda”** ma’nosini anglatuvchi **ep** otidan (ЭСТЯ, I, 286) eski o’zbek tilida **-chil** qo’shimchasi bilan yasalgan bo’lib (KPC, 959), **“eplashga usta”** ma’nosini bildirgan: *ep + chil = epchil.*

Epchil so’zining 2 xil ma’noda qo’llaniladi. Birinchi ma’nosi *uddaburon* so’zi bilan sinonim bo’lsa, ikkinchi ma’nosi esa *tez, chaqqon* so’zi bilan sinonim bo’ladi.

1. Ishni tez va uddaburonlik bilan bajarish qobiliyatiga ega; uddaburon. *Bizda hushyor savdogarlar, epchil boylar bor, ular ko’paymoqda. Oybek, “Tanlangan asarlar” .*

2. Tez, chaqqon harakatli; shunday harakat bilan. *Epchil bir yigit darhol kinoapparatini g’ilofidan chiqarib, Maxsumni suratga ola boshladi. H. G’ulom, „Zamin yul-duzlari“ . Hamma Nazir ota kabi shiddatkor, Go’yo ovga chiqqan epchil, zo’r burgut. R. Bobojon [2.50].*

Epchil so’zi **“žotalli”** so’ziga har bir ma’nosi bilan sinonim bo’la oladi. Shevada bu ikkala so’zni bevosita bir-birining o’rnida qo’llashimiz mumkin.

Žotalli qiz – epčil qiz

ABJIR — Oyoq-qo’li tez, tez harakat qila oladigan; epchil, chaqqon. Abjir bola, *Yo’lchiboy.. barvastaligiga qaramasdan abjirgina yigit. Oybek, “Tanlangan asarlar” . Otamdan yoshi katta bo’lsa ham, lekin o’zi abjir, g’o’labir kishi edi. M. Ismoilij, “Bizning roman”[1.37].*

Shevada *abjir* so’zi **“žotalli”** so’zi bilan parallel ravishda, fonetik o’zgargan holatda *abjir-abjil* shaklida foydalaniladi.

Žotalli jigit – äbžil jigit.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

CHAQQON — 1 *sft.* Epchillik bilan harakat qiladigan; chapdast. *Burgut* — ancha yirik, *chaqqon* va *kuchli qush*. “Fan va turmush”. *Qo‘shnisining chaqqon qizini ko‘z ostiga olib qo‘ygan edi*. “Yoshlik”.

2 *rvsh.* Tez, epchillik bilan. *U chaqqon kiyina boshladi*. “Yoshlik”. *Qizil chuvaklari bilan yumshoq bosib, chaqqon yelib xizmat qilmasa, o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay qoladi*. A. Muxtor, “Davr mening taqdirimda” [6.737-738].

Chaqqon so‘zining har ikkala ma‘nosi ham “*žotalli*” so‘ziga ma‘nodosh bo‘la oladi. Chaqqon so‘zi shevada “*čaqqa*” tarzida talaffuz qilinadi

Bundan tashqari shevada ushbu so‘zning rus tilidagi “*шустрый*” varianti ham parallel ravishda keng qo‘llaniladi. “*Шустрый*” so‘zi tarjima lug‘atlarida quydagicha izohlanadi.

Шустрый, -ая, -ое; шустёр, шустра, шустро разг. serharakat, g‘ayratli, epchil, chaqqon, o‘ktam, sho‘x, tiyrak, o‘tkir; ◆ ~ мальчишка sho‘x (yoki epchil) bola [12].

Шустрый so‘zining tarjima lug‘atidagi ma‘nosiga qaraydigan bo‘lsak, biz yuqorida ko‘rib chiqqan ma‘nolarga yaqin ekanligining guvohi bo‘lamiz. “*žotalli*” va “*шустрый*” so‘zlari shevada sinonim bo‘la oladi, ushbu ikkala so‘z yuqorida keltirilgan ma‘nodoshlik qatorida eng keng foydalaniladigan variantlardan biridir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “*žotalli*” so‘zi epchillik, tezlik bilan chaqqon, serharakat, g‘ayratli, ishbilarmon, uddaburonlik bilan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Növbähärdi kičinä qizi kättä qiziyä qaraganda žotalli, šüstiriginä. // Navbahorning kichkina qizi katta qaraganda uddaburon, epchilgina (Karimova I)[11].

Bir shaxsning ikkinchi shaxsga nisbatan xususiyatini ifodalashda qo‘llaniladi.

Yuqoridagi ma‘nodoshlik qatoridan *epchil*, *abjir*, *chaqqon*, *shustriy* variantlari “*žotalli*” so‘zi bilan bir qatorda shevada faol qo‘llaniladi. Uddaburon, ustomon, serharakat, g‘ayratli so‘zlari esa o‘g‘zaki nutqda kam qo‘llaniladi. Bu so‘zlar asosan adabiy nutqqa xos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.—T, 2022, I jild, —B. 964.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.—T, 2022, II jild, —B. 1036.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.—T, 2022, III jild, —B.844.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.—T, 2022, IV jild, —B.824.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.—T, 2022, V jild, —B.720.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.—T, 2022, VI jild, —B.864.
7. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

8. Решетов, В.В., Шоабдурахмонов, Ш. Ўзбек диалектологияси.- Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962.
9. Ражабов Н. Ғарбий Самарқанд шевалари. – Т: “Фан”. 1977
10. Ўзбек шевалари лексикаси. . – Т.,1966.
11. Dala yozuvlari (Samarqand viloyati Ishtixon tumanidan yozib olingan matnlar). 2024.
12. Vikilug‘at.